

АТРОФ МУИТ

Andijon davlat chet tillari insitutida o'qituvchisi

Boboyeva Vazira Ergashbayevna

Andijon davlat chet tillari insituti talabaasi

Abdulazizova Omina Baxtiyorjon qizi

Аннотация: *Mazkur maqolada atrof-muhitning hozirgi holati va ekologik muammolarning asosiy sabablari haqida ma'lumot beriladi. Unda sanoat chiqindilari, transportdan chiqadigan zararli gazlar va iqlim o'zgarishining kuchayishi asosiy ekologik muammolar sifatida ko'rsatiladi. Maqolada tabiiy resurslardan to'g'ri foydalanish, yashil energiyadan foydalanishni kengaytirish va chiqindilarni kamaytirish bo'yicha yechimlar tahlil qilingan. Shuningdek, ekologik madaniyatni oshirish va aholining ekologik muhofazaga bo'lgan mas'uliyatini kuchaytirish zarurligi ta'kidlanadi. Maqolada atrof-muhitni asrash bo'yicha amalga oshirilishi mumkin bo'lgan oddiy, lekin samarali choralar ham yoritilgan.*

Калит So'zlar: Атроф Муhit, Сув танqислиги, корхона, "Ороlбо'yi экологик тизими", О'симлик dunyosi.

Аннотация: В данной статье представлена информация о текущем состоянии окружающей среды и основных причинах экологических проблем. В ней промышленные выбросы, вредные газы, выбрасываемые транспортом, и усиление изменения климата рассматриваются как основные экологические проблемы. В статье анализируются решения по рациональному использованию природных ресурсов, расширению использования зеленой энергии и сокращению отходов. Также подчеркивается необходимость повышения экологической культуры и усиления ответственности населения за охрану окружающей среды. В статье также освещаются простые, но эффективные меры, которые можно предпринять для защиты окружающей среды.

Ключевые слова: Окружающая среда, Дефицит воды, предприятие, "Экологическая система Приаралья," Растительный мир.

Abstract: This article provides information on the current state of the environment and the main causes of environmental problems. It identifies industrial emissions, harmful gases from transport, and the intensification of climate change as the main environmental problems. The article analyzes solutions for the rational use of natural resources, expanding the use of green energy, and reducing waste. The necessity of raising environmental awareness and strengthening the responsibility of the population for environmental protection is also emphasized. The article also highlights simple but effective measures that can be implemented to protect the environment.

Keywords: Environment, Water scarcity, enterprise, "Aral Sea Environmental System," Flora.

Kirish

Butun insoniyat va boshqa barcha tirik mavjudotning hayot manbai bo'lgan atmosfera havosini asosan ikki manba: tabiiy omillar va inson faoliyatining mahsuli – antropogen manbalar ifloslantiradi. Hozirgi kunga kelib insoniyatning atrof-muhitga ta'siri tobora kuchayib bormoqda, natijada hayotni doimiyligini ta'minlaydigan asosiy jarayon, ya'ni tabiiy muvozanatni buzilishiga, yer yuzasining ko'pgina hududlarida noqulay ekologik sharoitlarning paydo bo'lishiga, mahalliy, mintaqaviy va global darajadagi ekologik muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Atmosfera havosini ifloslantiruvchi tabiiy omillarga tog' jinslarining yemirilishi, zilzila oqibati, vulqonlarning otilishi, o'rmonlarga o't ketishi natijasida tabiatga, atrof muhitga zararli omillarning tarqalishi kiradi. O'zbekistonda atmosfera havosining sifat va miqdoriy tarkibi shakllanishida tabiiy ifloslantiruvchi manbalar kabi antropogen ifloslantiruvchi manbalar ham katta rol o'ynaydi. Antropogen ifloslanishga esa asosan sanoat korxonalari, avtomobil, temir yo'l, suv transportlari chiqindi va ajratmalari, shuningdek turli yoqilg'ilar ishlatilishi natijasida paydo bo'ladigan zararli moddalarning atmosfera havosiga chiqarilishi oqibatida hosil bo'ladi. Mamlakatimizda tabiiy resurslarni boshqarish va ekologik muamolarni bartaraf etish borasida sayi

harakatlarga keladigan bo'lsak, qoniqarli darajada deya olamiz. Xususan ekoturizm sohasi. Zomin tog' landshafti, baxmal tumani ekologik muhiti, Guliston tumanidagi ekomaskan, Shovot turistik qishlog'i, Samarqand sohilbo'yi dam olish maskanlari va so'nggi yillardagi sayi harakatlar, katta mehnat natijasida tashkil qilingan "Orolbo'yi ekologik tizimi" bunga yaqqol namuna bo'la oladi. Ekologik muammolarni hal etishning asosiy yo'nalishlari Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi, Vazirlar mahkamasi, turli nodavlat tashkilotlari hamda davlat tomonidan qabul qilingan Atrof - muhitni muhofazasi, gigienik, biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha milliy harakat rejalari va strategiyalarida o'z aksini topgan. Har bir viloyat, har bir shahar, har bir qishloqning o'z ekotizimi tashkillashtirilgan, bu quvonarli hol. O'simlik dunyosi boy va rang barang, hayvonlarni muhofaza qilish uchun qo'riqxonalar tashkil qilingan. qo'riqxonalarda har bir tabiiy mintaqa, balandlik mintaqasida tabiiy landshaftlar namunasi va landshaft elementlari, masalan, xarakterli manzara, relief shakllari, tabiat yodgorliklari, ayrim noyob turlar va hayvonlar saqlanib qolinadi. So'nggi bir necha yil davomida O'zbekistonda turg'un manbalardan atmosferaga zararli moddalar tashlamalari barqaror darajada saqlanib qolmoqda, lekin ko'chma manbalardan ifloslanish, shu jumladan, qattiq zarrachalar va azot oksidlarining tashlamalari ortib bormoqda. Havoning ifloslanishiga turg'un havo, haroratning o'zgarishi, chang bo'ronlari kabi tabiiy omillar ham ta'sir qiladi. Eng ko'p tashlamalar tog'-kon boyitish va qayta ishlash korxonalari, elektr stansiyalari, neft-kimyoviy zavodlari joylashgan Toshkent, Qashqadaryo, Sirdaryo va Samarqand viloyatlarida kuzatilmoqda. Turg'un manbalardan chiqadigan tashlamalar yiliga 874 ming tonnani tashkil etmoqda. O'zbekistonda 4 mln. avtomobil yiliga 1,3 mln. tonna zararli moddalar tashlamalarini chiqaradi, ularning eng ko'pi Toshkent shahri va Toshkent viloyatiga to'g'ri keladi. Avtomobillar soni kun sayin ortib bormoqda. Atmosfera havosi sifati monitoringi O'zbekistonning 26 shahrida 66 postda amalga oshirilmoqda. Mamlakatdagi 800 dan ziyod korxonada ifloslantiruvchi moddalar tashlamalari davlat nazoratidadir. Havoning ifloslanishini baholash uchun atmosfera havosining ifloslanish indeksi (AII) qo'llaniladi. So'nggi besh yil davomida

O'zbekistonning aksariyat shaharlarida AII pastligicha qolmoqda. Mamlakatning sanoat shaharlarida tashlanmalarning cheklangan konsentratsiyadan oshish holatlari alohida qayd etilgan. Atmosfera havosining ifloslanishini kamaytirish maqsadida korxonalar va transport vositalari zararli moddalarni ushlaydigan qurilmalar bilan jihozlangan, shaharlardagi yashil hududlar kengaymoqda. O'zbekistondagi mavjud transportning katta qismi atmosfera havosiga chiqarilishi past bo'lgan tabiiy gazda ishlaydi. Elektromobillarni import qilish va ulardan foydalanish ortib bormoqda. Jamoatchilikda monitoring.meteo.uz portali va AirUz ilovasi orqali havo sifati haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyati paydo bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonini amalga oshirish maqsadida 2030 yilgacha Toshkent shahridagi istirohat bog'lari, xiyobonlar va yashil maydonlar hajmi va uzunligi kengaytiriladi. Jamoat transportidan foydalanish darajasi ikki barobar, elektroavtobuslar ulushi esa 50 foizga yetadi. O'zbekistonda suv tanqisligi ortmoqda. Bir tomondan, bu holat aholi sonining ko'payishi va oziq-ovqat va energiyaga bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan bog'liq. Boshqa tomondan, iqlim o'zgarishining oqibatlari, xususan, suv tanqisligi va qurg'oqchilik tobora ko'proq namoyon bo'lmoqda. Tog'larda qor to'planishi va muzliklar hajmi kamaymoqda, sel va toshqinlarga olib keladigan kuchli yog'ingarchilik xavfi ortmoqda.

Xulosa

Shuni ta'kidlash joizki, ekologik xavfsizlik dolzarbligi, juda zarurligi bilan insoniyatning buguni va ertasi uchun eng muhim muammolari jumlasiga kiradi. Xalqaro huquqiy tajribalar, zamonaviy fan, texnika va texnologiyalar asosida ekologik xavfsizlikning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston milliy xavfsizligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, ekologik muhitni asrash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada kuchaytirish zarur. Har bir fuqaroning ekologik madaniyatini oshirish ham barqaror rivojlanishning muhim omilidir. Tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish

kelajak avlodga sog'lom hayot tarzini yaratadi. Shuning uchun ekologik xavfsizlikni ta'minlash umumiy mas'uliyat sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA RESURSLAR RO'YXATI:

- 1) <https://xs.uz/uz/>
- 2) <https://staff.tiiame.uz/>
- 3) <https://uz-eco.tilda.ws/uz>